TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ALIYEV ABDULAZIZ ISMAILOVICH

KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO'K: 339.138:6P2.15.7:658(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in economic sciences

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ALIYEV ABDULAZIZ ISMAILOVICH

**KORXONALAR FAOLIYATINI RAQAMLI MARKETING
TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2265 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jumayev Nodir Xosiyatovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
	Berdiyorov Temur Azamatovich iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «_3_» _12_ soat _10.00_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_1533_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_18_» _11_ kuni tarqatildi.
(2024 yil «_18_» _11_ dagi _33_-raqamli reestr bayonnomasi).

G.Q. Abdurahmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.Dj. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, (DSc), dotsent

R.X. Karlibayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurligi. Global raqamli marketing bozori 2022-yilda 322,2 milliard AQSh dollariga yetib, jadal rivojlanish va oʻsishni amalga oshirdi. Bundan tashqari, koʻpchilik soha mutaxassislari bundan ham kattaroq kengayishni kutishmoqda va bozor 2028-yilda 689,8 milliard AQSh dollari darajasiga yetishi taxmin qilinmoqda va bu oʻsish tendensiyasi 2023-yildan 2028-yilgacha boʻlgan davrda CAGR (yillik oʻsish sur'ati) 13,62% ni koʻrsatadi[1]. "Jahon banki" ma'lumotlariga koʻra, raqamli iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotining 15 foizdan ortigʻini tashkil etadi va oxirgi oʻn yil ichida jahon yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 2,5 barobar tezroq oʻsdi. Raqamli marketing turli xil ijtimoiy media va raqamli media kanallari orqali xizmatlar yoki mahsulotlarni targʻib qilishni oʻz ichiga oladi, shuningdek, uning foydali vositalariga cost-per-click, elektron pochta, kontent, ta'sir qiluvchi marketing, klik uchun toʻlov reklamasi ya'ni PPC kiradi. Raqamli marketingning roli potentsial mijozlarni jalb qilish orqali brend xabardorligini oshirishdan iborat.

Jahonda onlayn xaridlarning mashhurligini oshirish va mijozlarning uzluksiz tajribasini taqdim etishga qaratilgan koʻp kanalli marketingni keng qoʻllash orqali jadal rivojlanayotgan elektron tijorat sanoati ham bozor oʻsishiga qoʻshimcha hissa qoʻshmoqda. Xususan, raqamli marketing texnologiyalari keng qoʻllash orqali korxonarning faoliyatini kengaytirish va bunda raqamli marketing texnologiyalari boʻlmish sun'iy intellekt (AI), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), buyumlar interneti (IoT), virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), sensorlar texnologiyasi, blokcheyn, mashinalar orqali oʻrganish (machine learning process) jarayoni kabi texnologiyalarni korxonalarning faoliyatiga qoʻllash va ular faoliyatini takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyot sohalarining huquqiy, me'yoriy asoslarini mustahkamlash, mamlakat iqtisodiyotini raqamli texnologiyalar vositasida yanada mustahlamlash jarayonini izchil davom ettirish borasida koʻplab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-60-son Farmonida "Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish", "dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish" hamda "toʻqimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga koʻpaytirish shuningdek, milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini 2026-yilda 5 mlrd AQSH dollariga yetkazish masalasi belgilangan[2]. Shu bilan birga, raqamli marketing

---

[1] GlobeNewswire, (2023) $689.8 Billion Digital Marketing Market Analysis by Digital Channel, End Use Industry, and Region - Global Forecast to 2028, retrieved from: https://www.globenewswire.com/en/news-release/2023/09/21/2747046/28124/en/689-8-Billion-Digital-Marketing-Market-Analysis-by-Digital-Channel-End-Use-Industry-and-Region-Global-Forecast-to-2028.html#:~:text=The%20global%20digital%20marketing%20market,US%24%20689.8%20Billion%20by%202028.

[2] The Impact of Digital Economy on the Economic Growth and the Development Strategies in the post-COVID-19 Era: Evidence from Countries Along the "Belt and Road" https://www.frontiersin.org/journals/public-health/articles/10.3389/fpubh.2022.856142/full.

texnologiyalari, uning elementlari, raqamli marketing tizimlari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ko‘plab tarmoqlarida yaxshi joriy etilmagan. Birinchi navbatda, mamlakatimizning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj sanoatida raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish sust rivojlanayotgani yoki kam rivojlanganligi tikuv-trikotaj, to‘qimachilik mahsulotlarini raqamli marketing platformalari ko‘magida va onlayn savdo orqali sotishda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, joriy sohada raqamli marketing texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish tikuv-trikotaj, to‘qimachilik mahsulotlarini onlayn savdosini sezilarli darajada oshirishga va natijada eksport darajasini ham oshirishga olib kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2015-yil 22-maydagi yildagi O‘RQ-385-son “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasining qonuni, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PQ-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari 2020-yil 5-maydagi PQ-4707 “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, qarorlari 2022-yil 21-yanvardagi PF-53 “To‘qimachilik va trikotaj korxonalari tomonidan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va ishlab chiqarish hamda eksportini rag‘batlantirish” to‘g‘risidagi farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlani-shining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya mavzusi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Raqamli marketing sohasiga ko‘plab tadqiqotchilar hissa qo‘shganlar va raqamli marketing texnologiyalari, shuningdek, raqamli marketing texnologiyalarini korxonalar, biznesning raqamli marketing strategiyalariga qo‘llash bo‘yicha juda ko‘p ilmiy va amaliy ishlar ishlab chiqilgan, jumladan, Chaffey, D. & PR Smith, Charlesworth, A., Kotler, P., Kartajaya, H., Setiawan, I., Jones. A.T., Malczyk. M., Beneke. J., Parker. C., Winterboer.C., Ryan, D., Scott, D.M.[3]

MDH mamlakatlari olimlari shu jumladan Bozhuk S.G., Kovalik L.N., Maslova T.D., Dolgov V, Mann I, Sukhov S, Gromov O.V., Kurasova M.A., Shishlo S.V.[4] joriy sohada ilmiy izlanishlar olib borganlar va raqamli marketing

---

[3] 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash https://lex.uz/docs/-5030957#-5032005.

[4] Chaffey, D. & PR Smith. (2017) Digital Marketing Excellence: Planning, Optimizing and Integrating Online Marketing. 5th Edition, Routledge. ISBN 978-1-315-64034-1. 691p., Charlesworth, A (2018) Digital Marketing. A Practical Approach. 3rd Edition. Routledge. p.353., Kotler, P., Kartajaya, H., Setiawan, I. (2017) Marketing 4.0 Moving from Traditional to Digital, John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey. p.207., Kotler, P., Kartajaya,

strategiyalaridan foydali, shuningdek, internet-marketing instrumentlari va raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni yaxshilashga katta hissa qo'shganlar.

O'zbekistonda marketing sohasini, shuningdek raqamli marketing texnologiyalarini rivojlantirish hamda to'qimachilik, tikuv-trikotaj sanoatida marketingni sohasini rivojlantirishning umumiy jihatlari L.T. Abduxalilova, M.A. Ikramov, M.Q. Pardayev, M.R. Boltaboyev, Sh.Dj. Ergashxodjayeva, M.S. Qosimova, M. Yusupov, U.U. Sharifxodjayev, Z.A. Xakimov, G.B. Mo'minova, A.B. Bobojonov, D.R. G'ofurova, N.B. Yahyoxonov, D.A. Abdiyeva, T.O. Mahmudov, R.A. Isayev, N.M. Mo'minova[5] kabi qator mahalliy olimlarning ishlarida o'z ifodasini topadi.

Yuqorida zikr etilgan olimlarning ilmiy izlanishlari hozirgi yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarda o'z o'rni va tanqidiy ahamiyatiga ega bo'lsa-da, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ahamiyati va mohiyati, texnologiyalarning o'zgarishi bilan bog'liq masalalar, marketing texnologiyasi, raqamli mijoz, raqamli bozorlar va elektron tijorat va ularning turli xil tahlillari

---

H., Setiawan. I. (2021). Marketing 5.0 Technology for Humanity. John Wiley & Sons, Inc. p. 221, Malhotra. N. (2020) Marketing research: An applied approach, 7th Edition, Global edition, Pearson Education Limited. p.890., Jones. A.T., Malczyk. M., Beneke. J., Parker. C., Winterboer.C. (2011) Internet marketing A highly practical guide to every aspect of internet marketing. Creative Commons BY-NC. 229p., Ryan, D. (2021) Understanding Digital Marketing, A complete guide to engaging customers and implementing successful digital campaigns, 5th Edition, Kogan Page. p.449., Scott, D.M. (2013) The new rules of marketing & PR: How to use social media, online video, mobile applications, blogs, news releases, and viral marketing to reach buyers directly (4th Edition.) Hoboken, N.J: John Wiley & Sons. 464p. Божук С.Г., Ковалик Л.Н., Маслова Т.Д (2012) Маркетинг. Учебник. Питер, СПб, стр-448. Долгов В, Манн И, Сухов С (2011) Интернет-маркетинг на 100% ISBN:978-5-49807-172-5, Питер, стр-240. Громов О.В., Формирование и развитие интернет-маркетинга в сфере рекламных услуг. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2012., Курасова М. А., Совершенствование маркетинговой деятельности предприятий на основе внедрения интернет-технологий. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук ПЕНЗА 2005. 08.00.05 - Экономика и управление народным хозяйством: маркетинг,
Шишло С.В. (2021) ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ Тексты лекций для магистрантов специальности 1-26-80-05 «Маркетинг» очной и заочной форм обучения. Минск. стр-171.

[5] Абдухалилова Л.Т. Интернет маркетинг. – Т.: ТДИУ, 2021. 265 б. Ikramov M.A., Pardayev M.Q., Abduxalilova L.T. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil. Darslik.- T.: TDIU, 2022.-470 b.;; U.Sharifxodjayev, Z.Xakimov. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. 2019.-271 b.; Ergashkhodjaeva. Sh.Dj. (2019) Innovatsion marketing. Darslik. / - T.: «IQTISODIYOT», 2019. 191b. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik.- T.: TDIU, 2018.-315 b.; Болтабоев М.Р. Тўқимачилик саноатида маркетинг стратегияси. Монография – Т.: Фан, 2004.; Муминова Г.Б., Шарифходжаев У. У. Ахборот коммуникация хизматлари бозорини ривожлантиришда инновацион маркетинг стратегияларидан фойдаланиш 08.00.11- Маркетинг PhD илмий даражаси автореферати.2019., Ўзбекистон Республикаси оммавий ахборот воситалари бренд бошқаруви услубий ёндашувини такомиллаштириш 08.00.13 – Менежмент ихтисослиги Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация, ТДИУ; 2015 й. Гафурова Д.Р. Ўзбекистонда ахборот коммуникация технологиялари соҳасида инновацион жараёнларини бошқариш (PhD) Диссертацияси 2021 й. Бобожонов А.Б. Ахборот Маҳсулоти ва хизматлари маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш методологиясини такомиллаштириш 08.00.11 – Маркетинг Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати 2023й. Yahyoxonov N.B. Korxonalarda raqamli marketingdan foydalanishni takomillashtirish 08.00.11 – Marketing iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati 2023. Хакимов З.А. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. 08.00.11- Маркетинг PhD илмий даражаси автореферати.2018. Абдиева Д.А. Маркетинг ёдашувлари асосида тикув-трикотаж корхоналари экспорт салоҳиятиии ошириш. 08.00.11- Маркетинг PhD илмий даражаси автореферати.2021. Махмудов Т.О. Мода индустриясини маркетинг стратегиялари асосида ривожлантириш 08.00.11 – Маркетинг Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати 2022. Исаев Р.А. Тўқимачилик саноатида сифат менежменти тизими асосида стратегик бошқаришни такомиллаштириш методологияси 08.00.13 – Менежмент иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати 2023. Muminova N.M., Marketing strategiyalari asosida tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish 08.00.11–Marketing iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati 2023

yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, tikuv-trikotaj tarmoqlari subyektlari tomonidan raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu muammoni hal etish zarurati tadqiqot mavzusini tanlash, maqsad va vazifalarni belgilashga imkoniyat yaratdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ПЗ-20170928153 "Korxonalarni innovatsion rivojlanish sharoitida vertikal integratsiyadan samarali foydalanish yo'llari" (2018-2020) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tikuv-trikotaj korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

marketing texnologiyasi, raqamli marketing metagalaktikasi (metaverse) deb nomlanuvchi marketing texnologiyasi (martech) ga yo'naltirilgan raqamli marketing texnologiyalarining kontseptual va nazariy jihatlarini ko'rib chiqish;

tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarida raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish bo'yicha yetakchi jahon tendensiyalarini tahlil qilish;

jahonning yetakchi davlatlarining tikuv-trikotaj sanoatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish tajribasini o'rganish;

mahalliy tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili;

raqamli marketing texnologiyalarini platformalashtirish jarayonini, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi tikuv-trikotaj va to'qimachilik sanoati uchun raqamli to'qimachilik metagalaktikasi (metaverse) ni yaratishni o'rganish;

tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish tizimini joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarida raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish samaradorligini oshirishning potentsial yo'llarini aniqlash va to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirish bo'yicha prognoz parametrlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tasarrufidagi tikuv-trikotaj korxonalarining raqamli marketing faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib tikuv-trikotaj korxonalarida raqamli marketing texnologiyalarini foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraktlashtirish, statistik tahlil, so'rov, ekspert baholash, induksiya, deduksiya, korrelyatsiya va regressiya hamda, EFA, CFA, SEM tahlili, prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tikuv-trikotaj, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi aloqa usullarining samarali elektron tizimlari va mijozlarga yo'naltirilgan platformani loyihalash orqali kiyim-kechak, tikuv-trikotaj, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, interaktiv

dizayn tizim va to'qimachilik mahsulotlarini sotishni rag'batlantirish uchun elektron tijorat faoliyatini olib borishdagi integratsiyalashgan tizimni o'zaro birlashtirish orqali takomillashtirilgan;

"O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi qoshidagi tikuv-trikotaj, to'qimachilik korxonalari uchun samarali raqamli marketing platformalarini ishlab chiqishning ta'siri "aqlli tarmoqlar", "aqlli ishlab chiqarish" va "aqlli korxonalar" uch elementi orqali tikuv-trikotaj, to'qimachilik korxonalariga "Raqamli marketing metagallaktika" (Digital Marketing Metaverse) yagona tizimini joriy etish orqali takomillashtirilgan;

raqamli marketing faoliyati doirasidagi raqamli marketing sa'y-harakatlari vositalarining samaradorligini aniqlaydigan DMROI tahlili sifatida tikuv-trikotaj korxonalarida foydalanish uchun tegishli raqamli platformalarni joriy etish modeli sifatini namoyish etish orqali "past samaradorlik" $(0.000) \leq DMROI \leq (0.330)$, "o'rtacha samaradorlik" $(0,331) \leq DMROI \leq (0,660)$, "yuqori samaradorlik" $(0,661) \leq DMROI \leq (1,000)$ darajalarini baholashning joriy ko'rsatkichlar bilan muvofiqligini ta'minlash asoslangan;

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari eksportiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liq bo'lgan trend modellari asosida 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tikuv-trikotaj va to'qimachilik sanoatining raqamli platformalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari belgilab olingan va shu asosda "TextileMap" raqamli marketing platformasi yaratilgan;

tikuv-trikotaj va to'qimachilik sanoati faoliyatida raqamli to'qimachilik metagalaktikasiga (metaverse)ga asoslangan raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha harakatlarni qo'llash usuli ishlab chiqilgan;

raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va samaradorligini baholash tizimi taklif etilgan;

API (amaliy dastur interfeysi va AI (sun'iy intellekt) orqali o'zaro bog'lanishi mumkin bo'lgan elektron tijorat platformalari, trikotaj mahsulotini virtual kiyib ko'rish jarayoni, raqamli kiyimlarni yaratish jarayonlari va B2B mijozlarini ehtiyojlarini qondirish darajasini baholash asosida raqamli marketingni platformalashtirish jarayonini amalga istiqbolli yo'llari belgilangan;

tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarining samarali va samarali faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan amaliy muammolar hamda joriy korxonalarning bozordagi o'rnini mustahkamlash uchun raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish mumkin bo'lgan imkoniyatlari belgilab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi joriy tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuvlar va usullar rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlar bazasidan olinganligi, "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining rasmiy ma'lumotlaridan va ushbu tadqiqot natijalariga amaliy baho berilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli marketing texnologiyalarini tikuv-trikotaj korxonalarida joriy etishga qaratilgan nazariy va kontseptual asoslarni ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasida mahalliy tikuv-trikotaj korxonalarining raqamli marketing faoliyatini

takomillashtirish boʻyicha uslubiy yondashuvlar, shuningdek, ushbu xulosalarni ishlab chiqishda taqdim etish bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning kontseptual asoslarini takomillashtirish va raqamli marketing texnologiyalarini iqtisodiy takomillashtirish, tikuv-trikotaj va toʻqimachilik sanoatining strategiya va dasturlarini ishlab chiqishda keng qoʻllanilishi mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatimizda tikuv-trikotaj ishlab chiqarish sektori subʼyektlari tomonidan raqamli marketing faoliyatini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda, raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish parametrlarini asoslashda foydalanish mumkin, shuningdek, oliy taʼlim muassasalarida "Raqamli marketing" fanidan darslik va oʻquv qoʻllanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli marketing texnologiyalari asosida korxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar va amaliy natijalar asosida:

tikuv-trikotaj, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar oʻrtasidagi aloqa usullarining samarali elektron tizimlari va mijozlarga yoʻnaltirilgan platformani loyihalash orqali kiyim-kechak, tikuv-trikotaj, toʻqimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, interaktiv dizayn tizim va toʻqimachilik mahsulotlarini sotishni ragʻbatlantirish uchun elektron tijorat faoliyatini olib borishdagi integratsiyalashgan tizimni oʻzaro birlashtirish orqali takomillashtirilgan usuli "Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan. ("Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi 2024-yil 3-maydagi, № 03/25-922-son maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida "Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi "MAIRIN" MChJning mahsulotlarni sotishdan tushgan daromadlar 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 14,7 foizga oshgan va daromad koʻrsatkichi 2022-yilda 7455,3 mln.soʻmni tashkil etgan.

"Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi qoshidagi tikuv-trikotaj, toʻqimachilik korxonalari uchun samarali raqamli marketing platformalarini ishlab chiqishning taʼsiri "aqlli tarmoqlar", "aqlli ishlab chiqarish" va "aqlli korxonalar" uch elementi orqali tikuv-trikotaj, toʻqimachilik korxonalariga "Raqamli marketing metagallaktika" (Digital Marketing Metaverse) yagona tizimini joriy etish orqali takomillashtirilgan usuli "Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan. ("Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi 2024-yil 3-maydagi, № 03/25-922-son maʼlumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida "Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi "HAMZA EXPO ART TEKSTIL" korxonasining tikuvchilik, toʻqimachilik mahsulotlari eksporti darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 20,7 foizga oshgan va eksport koʻrsatkichi 2022-yilda 43469,5 mln.soʻmni tashkil etgan.

raqamli marketing faoliyati doirasidagi raqamli marketing saʼy-harakatlari vositalarining samaradorligini aniqlaydigan DMROI tahlili sifatida tikuv-trikotaj korxonalarida foydalanish uchun tegishli raqamli platformalarni joriy etish modeli sifatini namoyish etish orqali "past samaradorlik" $(0.000) \leq DMROI \leq (0.330)$, "oʻrtacha samaradorlik" $(0,331) \leq DMROI \leq (0,660)$, "yuqori samaradorlik" $(0,661) \leq DMROI \leq (1,000)$ darajalarini baholashning joriy koʻrsatkichlar bilan muvofiqligini taʼminlash asoslanganligi taklifi "Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi

tomonidan amaliyotga joriy etilgan. ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi 2024-yil 3-maydagi, № 03/25-922-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tarkibidagi "MONOMY" MChJning mahsulotlarni sotishdan tushgan daromadlar darajasi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 12,9 foizga oshgan va daromad ko'rsatkichi 2022-yilda 3841,3 mln.so'mni tashkil etgan.

O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari eksportiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liq bo'lgan trend modellari asosida 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlari taklifi "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan. ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi 2024-yil 3-maydagi, № 03/25-922-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida mazkur taklif to'qimachilik korxonalarining 2030 yilgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda va mahsulot eksportining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyalar, shu jumladan 2 ta respublika va 4 ta xalqaro anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan 3 ta mahalliy jurnallarda, 1 ta xalqaro jurnalda maqola, 9 ta ma'ruza tezislari chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 131 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligiga e'tibor qaratilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalarini tavsiflangan, tadqiqot ob'yekti va predmetini belgilangan, tadqiqotning fan va texnikaning ustuvor yo'nalishlari bilan dolzarbligini asoslashlangan, hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida** korxonalari faoliyatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari yoritilgan. Korxonalarda raqamli marketing texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishning uslubiy jihatlari ochib berilgan. Yengil sanoat korxonalari amaliyotida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha jahon kompaniyalari tajribalaridan foydalanish yo'llari o'rganilgan.

So'nggi o'n yilliklarda qo'llanilgan raqamli transformatsiya va joriy atama korxonalar, kompaniyalar raqamli inqilob va raqamli transformatsiya natijasida olib kelingan o'zgarishlarni qanday qabul qilgani yoki ularni e'tiborsiz qoldirganligi, mijozlarning ehtiyojlarini rivojlanishi bilan bog'liq yirik biznesni yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Muallif nuqtai nazaridan, raqamli marketing - bu raqamli marketing maqsadlariga erishish uchun turli xil raqamli marketing texnologiyalari yordamida mijozlarni jalb qilish, ularga xizmat koʻrsatish va saqlashga qaratilgan faoliyat boʻlib hisoblanadi.

Jahon tajribasiga koʻra, raqamli dunyo va raqamli biznesda doimo mijozlarga yoʻnaltirilgan boʻlish uchun yangi biznes modellarini shakllantirish lozimdir, shuningdek, raqamli marketing texnologiyalari bilan oʻzaro bogʻliq boʻlib hisoblanadi, chunki raqamli transformatsiya texnologiyaga emas, balki tashkilotlar, kompaniyalar va korxonalarda texnologiyalardan strategik foydalanishga qaratilgan.

Tikuv-trikotaj, va toʻqimachilik korxonalari boshqa kompaniyalar bilan bir qatorda yangi raqamli biznes modellariga trasformatsiya qilish orqali ishchi kuchi samaradorligini oshirish va mijozlar tajribasini individuallashtirish orqali maqsadlarga erishishlari mumkin (Schwertner, 2017)[6]. Grafik (1-rasm)dan koʻrinib turibdiki, taqdim etilgan model Oʻzbekiston tikuv-trikotaj, toʻqimachilik korxonalariga katta muvaffaqiyatlar olib keladi va muallif tomonidan "Oʻztoʻqimachiliksanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi tikuv-trikotaj, toʻqimachilik korxonalari tomonidan joriy etish uchun tavsiya etilgandir.


1-rasm. Tikuv-trikotaj, toʻqimachilik sanoati uchun elektron va mijozlarga yoʻnaltirilgan platforma modeli[7]

Chunki mahalliy korxonalarning aksariyati hali ham texnologik taraqqiyotdan ortda qolmoqda yoki ilgʻor texnologiyalar mavjudligiga hali ham e'tibor bermay, ba'zan texnologiyalarga oʻtishni istamaydi yoki ularni toʻliq tushuna olmaydilar.

---

[6] Schwertner, K. Digital transformation of business. Trakia J. Sci. 2017, 15, 388–393. [CrossRef].

[7]Muallifning Florida universitetining "Yangi kiyim modeli uchun integratsiyalangan raqamli platforma" modeliga asoslangan ishi https://www.hb.se/en/About-UB/Current/News-archive/2018/January/Integrated-digital-platform-for-a-new-clothing-business-model/.

Raqamli marketing platformalari tikuv-trikotaj, kiyim-kechak va to'qimachilik kompaniyalari farovonligiga katta ta'sir ko'rsatib, so'nggi moda tendensiyalariga e'tiborni qaratdi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni rivojlanishi bilan birga moda marketingi ko'p yillar davomida rivojlangan bo'lsa-da, yuzaga kelgan qiyinchiliklar moda sohasida katta ma'lumotlar big data bilan ishlash zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, Facebook platformasidagi biron narsa yoki brendni afzal ko'rishlar, sharhlar, mijozlarning o'zaro bir-biri bilan ulashishlar shular jumlasidandir va Facebook kompaniyasi ham o'z platformasini "Meta" deb nomlagan holda raqamli metagalaktikalarga, metaversega katta e'tibor qaratmoqda. Pinterest, Instagram kabi rasmga asoslangan yaxshi rivojlangan platformalar kiyim-kechak, trikotaj sanoatida mijozlarning mahsulotlarga munosabati ta'sirini o'lchashda jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

2-rasm. Raqamli marketingni platformalashtirish jarayoni (Raqamli marketing metagalaktikasi modeli (metaverse)[8]

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, raqamli marketingni platformalashtirish jarayoni tikuv-trikotaj korxonalari, kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilar, uning sotuvchilari va to'qimachilik brendini ishlab chiquvchilar uchun katta qulaylik yaratishi mumkin, chunki u virtual bozorlarni va raqamli kiyimlarni simulyatsiya qilish jarayonlarini yaratishi mumkin, xususan, API (amaliy dastur interfeysi) va AI (sun'iy intellekt) tizimlari orqali o'zaro bog'lanishi mumkin bo'lgan elektron tijorat platformalari, virtual sinov jarayoni, raqamli kiyimlarni yaratish jarayonlari va faoliyatlari juda oson bajarilishi mumkin, chunki korxonalar ichida kiyim-kechaklarni ishlab chiqish uchun katta vaqt talab etiladi. To'qimachilik brendini ishlab chiqish ham juda qiyin bo'lishi mumkin hamda API (amaliy dastur interfeysi) va AI (sun'iy intellekt) tufayli to'qimachilik sohalaridagi barcha xatti-harakatlar shu raqamli marketing va raqamli to'qimachilik texnologiyalari orqali amalga oshirilishi mumkin, hamda yetkazib beruvchilar bilan aloqa ham osonlik bilan amalga oshirilishi mumkin, chunki bu kiyim-kechak ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi, hamda mijozlar MTT (mahalliy to'lov

---

[8]Muallif ishlanmasi

tizimlari) Click, Payme, Uzum, Oson va UPay yordamida kiyim-kechak, to'qmachilik mahsulotlarini xarid qilishlari mumkin.

Undan tashqari, eksport bo'yicha yetakchi, lider hali ham Xitoy davlati bo'lib qolmoqda va Yevropa Ittifoqidagi ikkinchi yirik yetakchi Italiya va xuddi shunday uning izdoshi bolib Buyuk Britaniya hisoblanadi, Xitoyning izdoshlari esa Hindiston, Bangladesh va Turkiya kabi davlatlar hisoblanishi mumkin. AQShda esa to'qimachilik eksportining biroz o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga ega ekanligi kuzatilmoqda. Jahon amaliyotida raqamli marketing texnologiyalari va uning asosiy vositalarini tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarida Bangladesh va Pokiston davlatlarining biznes operatsiyalariga joriy etishda raqamli marketing texnologiyalari va vositalari muvaffaqiyatli joriy etilganligini ko'rish mumkin. Bangladesh to'qimachilik tarmoqlari qidiruv tizimini optimallashtirish vositalari, SEO, SMM, Kontent marketingi va boshqalarni muvaffaqiyatli joriy qilgan bo'lsa, Pokistonda raqamli marketing texnologiyalari, jumladan veb-saytlar, elektron pochta, elektron bannerlar, homiylik havolalari keng joriy etilgandir va ular kiyim ishlab chiqarish jarayoni bilan o'zaro bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Dissrtatsiyaning **"Tikuv-trikotaj korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish xolati tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston to'qimachilik bozori va uning rivojlanish tendensiyalari hamda yengil sanoat korxonalarining raqamli marketing faoliyati holati tahlil qilingan. To'qimachilik korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishga tikuv-trikotaj korxonalari rahbarlarining, menejerlari munosabati o'rganilgan. Yengil sanoat korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish, ularning samaradorligi ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilingan.

O'zbekiston to'qimachilik, tikuv-trikotaj sanoati ko'p yillar davomida rivojlangan va u hali ham to'qimachilik sohasidagi ko'plab o'zgarishlar, xaridorlarning xohish-istaklarining o'zgarishi, moda o'zgarishi va eng muhimi, ko'plab sanoat tarmoqlarini inqilobini keltirib chiqaruvchi texnologik o'zgarishlar tufayli faol rivojlanmoqda, mamlakatlar, jumladan, O'zbekistonda "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining xissasi soha rivojida izchil ro'l o'ynamoqda, hamda hozirda, uyushmaga 7000 dan ortiq a'zo korxonalar va mahalliy to'qimachilik, tikuv-trikotaj korxonalari elektron tijorat platformalarini tadbiq etish ustida faol ishlamoqda va tikuv-trikotaj, to'qimachilik mahsulotlarini onlayn-do'konlar orqali sotmoqda, Wildberries onlayn-giganti O'zbekistonda o'zining filiali va vakolatxonasini ochgan. Biroq, asosan AQSh va Yevropada faoliyat yurituvchi Amazon.com onlayn-chakana gigantlari, shuningdek, Xitoy bozorlarida faoliyat yurituvchi Alibaba.com nomi bilan tanilgan AliExpress, mamlakatda mavjud emas, bu ham mijozlar uchun yaxshi sharoit yaratishi mumkindir, hamda Uzum.uz, bulavka.uz, mato.uz, fratelli casa, uzbtextile.com, shoptextile.uz va boshqa bir qator mahalliy onlayn va elektron tijorat provayderlari uchun raqobat yaratadi va uyushma bir nechta sektorlarni o'z ham ichiga oladi. Shuningdek, to'qimachilik sohasining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2018-yilda atigi 4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda 4,6 foizga o'sgan, bugungi kunda bu ko'rsatkich 2022-yilga borib 8 foizni tashkil etgan.

Jumladan, yengil sanoat ko'rsatkichlari 2022-yilda 62,75 milliard so'mga, 2021-yilda 52,37 milliard so'mga, 2019-yilda 31,7 milliard so'mga ko'paydi, bu

14

ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan atigi 18,6 milliard so'm edi. Binobarin, 2016-yilga nisbatan 2022-yilga nisbatan ko'rsatkichlar 2022-yilda 3,37 barobarga, 2021-yilda esa mos ravishda 2,81 barobarga oshgan.

1-jadval.
**O'zbekistonda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari[9]**

Ko'rsatkichlar	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	Farqi (+/) va (%) 2023-2018 yy.	
Ip-kalava (ming tonna)	427,9	528,6	614,8	789	841,6	940,3	512,4	119,8
Gazlamalar (million m2)	533,3	407,4	607,8	590,8	741,8	767,0	233,7	43,8
Trikotaj mahsulotlari (million dona)	319,7	342,5	345,4	411,0	423,8	455,8	136,1	42,6
Trikotaj palotnosi (ming tonna)	60,5	54,1	97,3	75,1	102,5	105,2	44,7	73,9
Tikuv mahsulotlari (mlrd.so'm)	2873,8	3216,8	4080,9	4679,8	5174,7	5570,0	2696,2	93,8
Paypoq mahsulotlari (million juft)	117,0	126,4	155	219,8	286,4	305,0	188,0	160,7

Demak, 2018 va 2023 yillar mobaynida deyarli barcha yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasini ko'rsatgan (1-jadval). Masalan, Ip-kalava 427,9 ming tonnadan 940,3 ming tonnaga o'sgan, bu 512,4 ming tonna o'sish va 119,8 foiz o'sish bilan trikotaj mahsulotlari 319,7 million donadan 455,7 million donagacha o'sgan. Ishlab chiqarish 136,1 mln.donaga oshib, 2018-2023-yillarda 42,6 foizga o'sgan, yakuniy trikotaj palotnosi ishlab chiqarish 60,5 ming tonnadan 105,2 ming tonnaga, ya'ni 44,7 ming tonnaga o'sgan va 2018 yildan 2023 yilgacha 73,9% ga o'sgan. Shu bilan birga, gazlama ishlab chiqarish indeksi 533,3 mln.kv.m.dan 767 mln.kv.m.ga o'sgan va 2018 yildan 2023 yilgacha 43,8% ga o'sgan. Shuningdek, tikuv mahsulotlari sohasida sezilarli o'sish kuzatildi va bu erda ham keskin o'sish kuzatilgan va 2018 yildan 2023 yilgacha 93,8 foizga o'sib 2023-yilda 5570 mlrd.so'mni tashkil etdi. Paypoq ishlab chiqarish (1-jadval) ham to'qimachilik sohasining muhim sohasi hisoblanadi. Shunday qilib, paypoq ishlab chiqarish ko'rsatkichi 117 million juftdan 305 mln donagacha o'sganini ko'rish mumkin. 2018 yildan 2023 yilgacha 160,7 foizni tashkil etgan va 2023-yilda 188 mln.juftni tashkil etgan.

Shu bilan birga, to'qimachilik, tikuv-trikotaj sanoati korxonalari biznes va operatsiyalarni boshqarish jarayonlari asosan B2B marketingga asoslanadi va raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish holatini aniqlash bo'yicha tikuv-

---

[9]O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

trikotaj va to'qimachilik sanoati korxonalarida tadqiqot Google docs[10] so'rovnoma shaklidan foydalangan holda 320ta korxonada so'rov o'tkazildi.

3-rasm. Marketing tadqiqoti gipoteza modeli[11]

Undan tashqari, tadqiqot jarayonida Microsoft Excel bilan birga SPSS va SPSS AMOS dan foydalangan holda tadqiqotning omilli tahlili va CFA tasdiqlovchi omillar tahlili kabi turli xil marketing tadqiqotlari tahlillaridan foydalanildi. Ma'lumotlar tahliliga kelsak, biz SPSS yordamida Maksimal ehtimollik va Varimax rotatsiya yordamida EFA tahlili bo'yicha shkalaning dastlabki tahlilini o'tkazdik va keyin AMOS dasturi yordamida CFA tahlilidan foydalandik va quyidagi natijalarni oldik:

Gipotezalar:

H1: Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi kompaniya menejerlarni foyda idrokiga ijobiy ta'sir qiladi

H2: Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi menejerlarning xarajatlarni idrok etishiga ijobiy ta'sir qiladi

H3: Kompaniya menejerlarini foyda idroki, xarajatlar idrokiga ijobiy ta'sir qiladi

H4: Kompaniya menejerlarini foyda idroki, raqobatni idrok etishga ijobiy ta'sir qiladi

H5: Kompaniya menejerlarini foyda idroki, eksport idrokiga ijobiy ta'sir qiladi

H6: Raqobatni idrok etish menejerlarning xarajatlarni idrok etishiga ijobiy ta'sir qiladi

H7: Eksport idroki menejerlarning xarajatlarni idrok etishiga ijobiy ta'sir qiladi

H8: Eksport idroki raqobat idrokiga ijobiy ta'sir qiladi

H9: Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi eksportni idrok etish samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi

---

[10] Tadqiqot natijalari https://docs.google.com/forms/d/1dXm27gGlmj0Vh3
[11]Muallif ishlanmasi

16

H10: Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi raqobatni idrok etishga ijobiy ta'sir qiladi.

4-rasm. Hisoblangan SEM modeli[12]

Varimax rotatsiyasi metodi bilan maksimal ehtimollik usuli yordamida omili tahlili shkalaga kiritilgan omillar o'rtasidagi bog'liqlik va omillar tuzilishini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Rotatsion faktorlar matritsasi natijalari quyidagi jadvallarda keltirilgan. Biz so'rov natijalarining ishonchliligi uchun Cronbach's Alpha testini sinab ko'rishdan boshladik va natijada Cronbach's Alpha 0,858 natijasini ko'rsatadi, bu juda yaxshi ko'rsatkich, chunki natija 0,90 ga yaqin bo'lishi kerak. CFA natijasi shuni ko'rsatadiki, model yaxshi mos statistikaga ega, jumladan x2/df = 1,334, RMSEA 0,055, SRMR 0,068, CFI 0,962 va PClose 0,385. Tavsiya etilgan qiymatlar qavs ichida Hu va Bentler (1999)13[13], Browne va

---

[12]Muallif ishlanmasi
[13] Hu, L. T., & Bentler, P. M. (1999). Cutoff criteria for fit indexes in covariance structure analysis: Conventional criteria versus new alternatives. Structural equation modeling: a multidisciplinary journal, 6(1), 1-55.

Cudeck (1992)[14] (RMSEA<.08, SRMR>.10, CFI>.90, PClose) koʻrsatmalariga asoslangan holda berilgan. <0,01).

<div align="right">**2-jadval**</div>
<div align="center">**Har bir juftlik oʻzgaruvchilari oʻrtasida gipotezani tekshirish[15]**</div>

No.	Paths	Estimate	P	Remarks
H1	Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi (MRMS)> Kompaniya menejerlarni foyda idroki (KMFI)	0,658	0,001	H1 qabul qilinadi
H2	Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi (MRMS)>Menedjerlarning xarajatlarni idrok etishi (MXI)	0,831	0,001	H2 qabul qilinadi
H3	Kompaniya menejerlarni foyda idroki (KMFI)> Menedjerlarning xarajat idroki (MXI)	0,971	0,001	H3 qabul qilinadi
H4	Kompaniya menejerlarni foyda idroki (KMFI)> Raqobat idroki(RI)	0,711	0,001	H4 qabul qilinadi
H5	Kompaniya menejerlarni foyda idroki (KMFI)> Eksport idroki (EI)	1279	0,005	H5 rad etiladi
H6	Raqobatni idrok etish (RI) > Menedjerlarning xarajat idroki (MXI)	0,899	0,001	H6 qabul qilinadi
H7	Eksport idroki (EI)> Menedjerlarning xarajat idroki (MXI)	1272	0,005	H7 rad etiladi
H8	Eksport idroki (EI)> Raqobat idroki (RI)	0,856	0,001	H8 qabul qilinadi
H9	Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi (MRMS)>Eksportni idrok etish (EI)	0,912	0,001	H9 qabul qilinadi
H10	Menedjerlarning raqamli marketingga sodiqligi (MRMS)>Raqobatni idrok etish (RI)	0,668	0,001	H10 qabul qilinadi

Shu bilan birga, olingan natijalar asosida SEM modeli boʻlgan Strukturaviy tenglama modeli asosida gipotezalar tuzildi va tekshiruv oʻtkazildi (3-rasm va 4-rasm) va tavsiflar (2-jadval) da keltirilgan, bunda koʻrsatilgan sabab-oqibat munosabatlarining qisqacha tavsifi va gipotezalar berilgan, (koeffitsientlar > 0,50) mezon va korrelyatsiya yuklamalarini hisobga olgan holda. Shunday qilib, biz 0,97, 0,91 qiymatlari bilan H3, H9 bilan bogʻliq kuchli munosabatlarni, shuningdek, 0,89 qiymati bilan H6 va 0,85 qiymati bilan H8 oʻrtasidagi ijobiy munosabatlarni, shuningdek kuchli korrelyatsiya bilan 0,71 qiymati bilan H4 gipotezani kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga, shuni taʼkidlash mumkinki, kompaniya menejerlarni foyda idroki xarajatlarni idrok etishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, shuningdek, menejerlarning raqamli marketingga sodiqligi eksport idrokiga ijobiy taʼsir qilar ekan (H3, H9).

Xuddi shunday, raqobatni idrok etish menejerlarning xarajatlarni idrok etishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, eksportni idrok etish raqobatni idrok etishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, shuningdek kompaniya menejerlarni foyda idroki raqobatni idrok etishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi (H6, H8, H4). Shunga koʻra, biz H3, H9, H6, H8, H4 gipotezalarini qabul qilishni koʻrib chiqamiz, chunki ular bir-biri bilan kuchli

---

[14] Browne, M. W., & Cudeck, R. (1992). Alternative ways of assessing model fit. Sociological methods & research, 21(2), 230-258.
[15] Muallif ishlanmasi

va o'rtacha munosabatlarga ega. Mukammal ijobiy korrelyatsiya H5 va H7 sifatida 1,27 qiymatiga ega deb hisoblanishi mumkin, bu holda biz ushbu gipotezani rad qilamiz, chunki o'zgaruvchilarning ko'payishi yoki kamayishi kompaniyaning idrok etilgan foydasi bilan to'liq proportsionaldir. H1da 0,65 qiymatida va 0,66 qiymatida H10da o'rtacha korrelyatsiya kuzatilishi mumkin, bu esa ushbu farazlarni qabul qilishdan dalolat beradi, xususan, menejerlarning tikuv-trikotaj korxonalarida raqamli marketingga sodiqligi kompaniyaning foydalari va raqobatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bir-biri bilan ijobiy munosabatlarga ega bo'lgan ta'kidlangan o'zgaruvchilar raqamli marketing faoliyatiga, eksportga, tikuv-trikotaj va to'qimachilik korxonalarining foydasiga yaxshi ta'sir qiladi.

Dissertatsiyasining **"Tikuv-trikotaj korxonalarida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida tikuv-trikotaj, to'qimachilik korxonalarida raqamli marketing strategiyasidan foydalanishni joriy etish mexanizmlari, raqamli marketing texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan va ularni amalga oshirish samaradorligini baholash hamda istiqbolli yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Tikuv-trikotaj, to'qimachilik korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

